



DETEKTIV JANRINING XITOIY AN'ANAVIY ROMANLARI HIKOYA USLUBIGA TA'SIRI

Rasuleva Nigina Alisherovna

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoy filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
nigina11@hotmail.com*

Abdulazizova Mahbuba Umidjon qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy filologiyasi
kafedrasida talabasi
mahbubaabdulazizova001@gmail.com*

Annotatsiya. *Qing sulolasining oxiri va XXRning ilk davrida ingliz detektiv romanlarining kiritilishi nafaqat keng jamoatchilik uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ldi, balki Xitoyning ilk davridagi jamiyatning ko'plab jabhalariga ta'sir ko'rsatdi. Chet el romanlarining kirib kelishi oxirgi Qing sulolasi va Xitoy Respublikasining ilk davrida odamlarning ko'zini ochdi va jamiyat asta-sekin G'arb adabiyotini tushuna boshladi. Ushbu maqolada detektiv romanlarning xitoy adabiyoti, hikoya uslubiga ta'siri haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *detektiv adabiyot; hikoya uslubi; hikoya nazariyasi; Viktoriya davri; Sherlok Xolms; Lin Shu; Cheng Pingyuan; klassik adabiyot; xalq ma'rifati; intellektual salohiyat.*

XIX asr butun dunyo bo'ylab ilm-fan yutuqlari asri bo'ldi. Darvinning evolyutsiya nazariyasi eng ajoyib yutuq bo'ldi hamda bu asrda Buyuk Britaniyada fan va texnologiyaning jadal rivoji kuzatildi. O'rta asrlardan Buyuk Britaniya yetakchilikni qo'lga kiritgach, jahon markazi Angliyaga ko'chirildi va Angliya zamonaviy fanning vatani bo'ldi. Dunyoga mashhur ko'plab olimlar, Gilbert, Xarvi, Huk, Nyuton, Vatt, Faraday kabilar ham inglizlar orasidan yetishib chiqdi. Ularning ilmiy va texnikaviy yutuqlari butun dunyoga katta ta'sir ko'rsatdi, odamlarning ijtimoiy hayot tarzini o'zgartirdi va zamonaviy sivilizatsiya rivojiga hissa qo'shdi. Bu ilmiy ruh o'sha davrda yaratilgan adabiy asarlarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, Konan Doylning "Sherlok Xolms ishi" klassik ingliz adabiyotining yorqin na'munasidir.¹

Konan Doyl yashagan tarixiy davr Angliyada kechki Viktoriya davri, ya'ni 19-asrning o'rtalari va oxirlariga to'g'ri keladi. Viktoriya davridagi ijtimoiy urflardan biri fanga sig'inish edi. Nafaqat olimlar, balki oddiy odamlar ham ilm-

¹李欧梵著.《上海摩登——一种新都市文化在中国》[M].北京大学出版社.2001



fanning buyukligiga ishonar va muammolarga yechim topish uchun uchun ilmiy usullardan foydalanishga harakat qilardilar. Konan Doyl shunday ijtimoiy muhitda voyaga yetdi, uning asl kasbi shifokor bo'lganligi uchun ham, uning "Sherlok Xolms" asari ilm-fanning qudratini hamma joyda ko'rsatadi. Xolms kimyo va tibbiyot fanlarini yaxshi biladi va tajribalarga qiziqadi. "Qon tahlilini o'rganish"da Xolms birinchi marta laboratoriyada bo'ladi. U o'sha paytda g'alati tajriba o'tkazadi, ammo tajribaning o'ziga xos mazmuni keyinroq bayon qilinadi. U tergov va dalillarni to'plashda kuzatish, fikr yuritish va tahlil qilish uchun ilmiy usullardan ham foydalanadi.

Qing sulolasining oxiri va Xitoy Respublikasining ilk davrida ijtimoiy takomillashtirish tarafdori bo'lgan islohotchilar G'arbning hozirgi zamondagi kuchi asosan fan va texnologiya rivojiga bog'liqligini, Xitoyning zamonaviy davrda qoloqligi esa yopilishining natijasi ekanligini anglab yetgan edi.²

Binobarin, Ke Shi asarlari Xitoyga tarjima qilinib, tanishtirilganda, Qing sulolasining oxiri va Xitoy Respublikasining ilk davrida jamiyatda "ilm-fan" to'liqini borligiga shubha yo'q edi. An'anaviy xitoy tilida yozilgan jinoyatlarni ochish romanlarida jinoyatlarni ochishning ilmiy usullaridan foydalanilmas edi, xitoyliklar tarjima qilingan detektiv romanlarda jinoyatni ilmiy jihatdan yechish uslubini ilk marotaba ko'rishgan. Fan va texnologiya zamonaviy Xitoyni modernizatsiya qilish jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, hatto 4-may harakati ham keyinchalik "fan" dan asosiy targ'ibot obyekti sifatida foydalangan.³

"4-may" harakatining zo'ravonlik to'liqini bilan solishtirganda, ingliz tiliga tarjima qilingan detektiv romanlarning ko'lami keng emas va ta'siri uzoqqa cho'zilmaydi. Ammo detektiv romanlarda aks ettirilgan demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi va ilmiy ong Qing sulolasining oxiri va Xitoyning ilk davrida jamiyatga yangi ma'rifat to'liqini olib keldi.⁴

Pekin universiteti professori Chen Pingyuan "Xitoy romanlari hikoya uslubining o'zgarishi" asarida ikki xil o'zgarish xususida so'z yuritdi: "1902 - yildan boshlab, Xitoy romanlari romanlarning an'anaviy hikoya uslubidan katta farq qila boshladi. Bu holat 1911 - yil inqilobidan keyin biroz turg'unlashdi, ya'ni yana eski uslubga qaytishni boshladi, lekinoldingi an'anaviy roman rejimiga

² 瓦尔特·本雅明著.《发达资本主义时代的抒情诗人》[M]. 王才勇译. 江苏人民出版社. 2005

³ 陈平原著.《中国现代小说的起点—清末民初小说研究》[M]. 北京大学出版社. 2005

⁴ 李俊国著.《中国现代都市小说研究》[M]. 中国社会科学出版社. 2004



butunlay qaytmadi. “4 – may” harakati tez sur’atlar bilan rivojlanib, zamonaviy xitoy romanlarining yangi hikoya uslubiga asos soldi.

Uning fikricha, xitoy romanlarining hikoya uslubining o’zgarishi ikki siljishning birlashgan kuchidir: “Birinchidan, xitoy romanlariga G’arb romanlari ta’sir ko’rsatdi; ikkinchidan, romanlar Xitoy adabiyoti strukturasi chekkadan markazga ko’chdi. Oxirgi siljish avvalgi siljish tufayli yuzaga keladi. Ko’rinib turibdiki, Qing sulolasining oxiri va Xitoy Respublikasining ilk davrida G’arb romanlari tarjima qilinishi Xitoy romanlarining hikoya uslubini o’zgartirishda “tashqi omil” rolini o’ynagan, Qing sulolasining oxiri va Xitoy Respublikasining boshida tarjimonlar tomonidan kiritilgan g’arbiy romanlarning barcha turlari orasida esa detektiv romanlarning hikoya uslubi eng noyob hisoblanadi”.⁵

Albatta, g’arb detektiv romanlarining narratologik tahlili keng qamrovli va nisbatan murakkab nazariyaga ega bo’lgan mavzudir. Bu yerda biz faqat oxirgi Qing sulolasi va Xitoy Respublikasining ilk davriga to’xtalib o’tamiz. G’arb tilidan tarjima qilingan detektiv romanlarning eng mashhur “Sherlok Xolms” misolida ularning xitoy adabiyoti romanchiligiga ko’rsatgan ta’siri haqida qisqacha tushuntirish beramiz:

a) hikoya tuzilishi

“Sherlok Xolms ishi” asari strukturasi eng ko’zga ko’rgan jihat shundaki, unda teskari bayon qo’llaniladi, ya’ni unda avval natija (sodir bo’lgan sud ishi), undan keyin esa ushbu jinoyat ishini ochish, dalil, guvohlarni to’plash, gumondorlarni topib so’roq qilish, topilgan materiallarni tahlil qilish, jinoyatchini topib uning motivini aniqlash, keyin esa jinoyat sodir etish jarayonini takrorlash uchun “orqaga qaytish” usuli qo’llaniladi. Bu turdagi reversiv hikoyalar romanni hikoya qilish vaqti bilan bog’liq. G’arb roman nazariyotchilari romanlarning hikoya qilish vaqtini turli nuqtai nazarlarni inobatga olinadi. Asarda bir vaqtda bir nechta hodisalar sodir bo’lishi mumkin, lekin ularni o’quvchiga ketma-ketlikda uzatish lozim; shu orqali murakkab tasvir to’g’ri chiziqqa proyeksiyalanadi.⁶

Voqealar tartibini to’g’ri shakllantirish – muallif e’tiborga olishi lozim bo’lgan jihat. Detektiv romanlardagi “teskari hikoya qilish” haqiqatan ham Qing sulolasining oxiri va Xitoy Respublikasining ilk davridagi roman mualliflarining katta e’tiborini tortdi. Ayniqsa, roman boshida ishning oqibatini tushuntirish shakli

⁵ 韩南著. 《中国近代小说的兴起》 [M]. 徐侠译. 上海教育出版社. 2004

⁶ 黄泽新、宋安娜著. 《侦探小说学》 [M]. 百花文艺出版社. 1996



tarjimonlar, romanchilar va kitobxonlarni hayratga soldi. Tarjimon Lin Shu shunday degan edi: “Asarda birinchi navbatda qotilning fosh etilishi haqida so‘z boradi, ikkinchi qism esa sababni tasvirlashni boshlaydi, bu esa o‘quvchini qiziqtirib qo‘yadi, lekin shu joyida voqealar to‘xtab qoladi, natijada kitobxonda yanayam qiziqish kuchayadi”. Qing sulolasining oxirida Jue Vo ham g‘arb detektivlari haqida shunday degan edi: “detektiv romanlar sintaksis jihatidan emas, balki kompozitsiya jihatidan; ular ruhiy jihatdan emas, balki shakl jihatidan ustundir”.⁷

Lekin xitoy adabiyotida teskari shaklda yaratilgan asarlar yo‘q degani emas. Tang sulolasi afsonalarida teskari hikoya, birinchi shaxs tilidan aytilgan qissa, yoxud uchinchi shaxs tilidan aytilgan hikoyalarni uchratish mumkin. Biroq, xitoy hikoyalarida hali hamon “bir tizimli hikoya uslubi” hukmronlik qilar, klassik xitoy roman mualliflari kamdan-kam hollardagina teskari hikoya qilish uslubiga murojaat qilar edilar. Shu sababli, “XIX asrning oxirigacha, Xitoy romanlari tarixida yuksak badiiy yutuqlarga ega bo‘lgan va hukmronlik qilgan uzun bo‘limli romanlar hali ham “Zuo Chjuan” ning “sakrash usuli”ni amaliyotga tatbiq etmagan. Uning aytishicha, XX asrga qadar Xitoy romanlari asosan izchil hikoya usulini qo‘llagan.⁸

b) hikoya qilish nazariyasi

“Qonli tadqiqot”ning tarjimasining birinchi qismi “Sobiq armiya shifokori Jon Uotsonning xotiralari” deb nomlanadi. Kirish qismi Jon Uotsonning jang maydonidan qaytib kelgani va Sherlok Holms bilan qay tariqa tanishgani haqida hikoya qiladi, ular birgalikda Beyker ko‘chasi, B blokda 221-sonli uyni ijaraga olishadi, shu tariqa hikoya boshlanadi. Asarning keying hikoyalari ham Uotsonning ko‘zida “Sherlok Xolms tadqiqotlari” deya nomlanadi. Asar rakursi butun aasarga nisbatan olinmaydi. G‘arb hikoyalarida qo‘llaniladigan birinchi qahramon tilidan cheklangan bilim bilan hikoya qilinadigan rakurs, aslida, detektiv asarlar uchun ayni muddaodir. Birinchidan, kuzatuvchida “kutish” holatini yaratish, hikoya uslubiga mos keladi va aynan o‘quvchini kuttirish, qiziqish uyg‘otadi. Ikkinchidan, asarning birinchi shaxs tilidan hikoya qilinishi butun voqeani tafsilotlari bilan to‘liqligicha his qilishga yordam beradi, bu esa mohirona

⁷ 郭延礼著.《中国近代翻译文学概论》[M].湖北教育出版社.1998

⁸ 阿英著.《晚清小说史》[M].人民文学出版社.1980



tuzilish strukturasi bildiradi. Qahramonlar boshidan kechirganlari bir-biriga unchalik ham bog‘liq bo‘lmasligi mumkin, lekin hech bo‘lmaganda, hamma qismlar bir shaxsga aloqador bo‘lgani tufayli, bu bir qismni boshqalari bilan bog‘lab turishga xizmat qiladi. Birinchi shaxs bir-biri bilan aloqasi bo‘lmagan voqea hodisa va shaxslarni bir-biriga bog‘lab, hikoyaning umumiy ramkasiga kirgizishga xizmat qiladi. Shuningdek, birinchi shaxs tilidan hikoya qilish to‘qima hikoyani “ishonch hikoyasi”ga aylantiradi. Sherlok Xolms va Uotsonning Londondagi Beyker ko‘chasi B blok 221-xonadoni ham hayolijoydan hayotiy sahnaga aylanadi. tabiiyki, muallif Konan Doyl o‘zi yaratgan Sherlok Xolms kabi mashhur emas. 1893-yilning dekabr oyida yozuvchi Sherlok Xolmsni “o‘ldirgani”da ingliz kitobxonlarini shok holatiga tushirib qo‘ydi, odamlar bu “to‘qima” voqeani angladilar, shunda birinchi shaxs Uotsonning katta mavqega ega ekanligi ayon bo‘ldi.⁹

Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, “Sherlok Xolms ishi” asarining ilk xitoychaga tarjima qilgan tarjimon asarda asl muallif nomini keltirib o‘tmagan, shuningdek, birinchi shaxs tilidan hikoya qilingan asarni uchinchi shaxs tiliga o‘zgartirgan.

Birinchi shaxs tilidan hikoya qilishdan faqatgina g‘arb romanlarida foydalanilgan degan qarash ham noto‘g‘ri, Xitoyning Tang sulolasida ijod qilgan yozuvchi Li Gungszo yaratgan “Se Syao biografiyasi” asarida voqealar birinchi shaxs tilidan hikoya qilingan; kechki Qing sulolasidan Chjan Xui yaratgan romanlarda ham asar birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Shunga qaramay, Xitoy romanlarida, asosan, uchinchi shaxs tilidan hikoya qilish an’anasi ustunroq turar edi. Lekin, U Tszicheng, Lyu Yuan kabi “yangi romanchilar” g‘arb romanlariga taqlid qilib, uchinchi shaxs tilidan aytiladigan romanlar yozishni cheklay boshladilar. “G‘alati holat yuzasidan yigirma yillik kuzatuv” hamda “Nogironlar va qariyalar sayohati” nomli tuzilmalar tomonidan qadimiy Xitoy romnlarida qo‘llanilgan, va hozirgi kunga kelib, ortiqcha deya topilgan ayrim hikoya usullari va romanlardagi ikki tomonlama kirish so‘zlarini yozish bekor qilindi. “To‘rtinchi may” davrida ijod qilgan yozuvchilar, asarda birinchi shaxs hikoyasini qo‘llay boshladilar, chunki bu vaqtda ijodda nafaqat, G‘arb romanlari tarjimasini, balki, G‘arb romanlar nazariyasi ham mavjud edi. Xitoy adabiyotida birinchi shaxs

⁹ 阿英著. 《晚清文学丛钞·小说戏曲研究卷》 [M]. 中华书局. 1960



tilidan hikoya qilish orqali yaratilgan birinchi asar Lu Xunning “Telba kundaligi” romani edi.¹⁰

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish lozimki, detektiv romanlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, ya’ni Qing sulolasining oxiri va Xitoy Xalq Respublikasining ilk davrlarida tarjimonlar tomonidan xitoy tiliga tarjima qilinib, zamonaviy Xitoy adabiyoti tarixida ulug‘vor iz qoldirgan. 1920-yillardan 1940-yillarning o‘rtalarigacha Xitoyda ko‘plab detektiv yozuvchilar yetishib chiqdi va jamiyatda detektiv romanlarga qiziqish oshdi. Albatta bu davrda xitoy adabiyotida yaratilayotgan detektiv romanlar janr standartlariga to‘la javob bera olmas edi, lekin shunga qaramasdan, xitoylik yozuvchilar izlanishda davom etdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. 李欧梵著.《上海摩登——一种新都市文化在中国》[M].北京大学出版社.2001
2. 瓦尔特·本雅明著.《发达资本主义时代的抒情诗人》[M].王才勇译.江苏人民出版社.2005
3. 陈平原著.《中国现代小说的起点—清末民初小说研究》[M].北京大学出版社.2005
4. 李俊国著.《中国现代都市小说研究》[M].中国社会科学出版社.2004
5. 韩南著.《中国近代小说的兴起》[M].徐侠译.上海教育出版社.2004
6. 黄泽新、宋安娜著.《侦探小说学》[M].百花文艺出版社.1996
7. 郭延礼著.《中国近代翻译文学概论》[M].湖北教育出版社.1998
8. 阿英著.《晚清小说史》[M].人民文学出版社.1980
9. 阿英著.《晚清文学丛钞·小说戏曲研究卷》[M].中华书局.1960

¹⁰ 范伯群编.《中国现代通俗文学史》[M].北京大学出版社.2007